

leksik vositalardan hisoblanadi. Ular, ayniqsa, dramatik asarlarda personajlarning emotsional salbiy baholashi munosabatlarini, kuchli g'azab, nafrat tuyg'ularini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Dramatik asarlarda bunday so'zlarning kuchli uslubiy ma'no tashishining boisi personajlar xarakteri ularning o'z nutqlari orqali ko'rinishi xususiyatidandir. Bu yerda obrazlarning ichki nidolari, qiyofa ko'rinishlari, ularning voqelikka va o'zaro munosabatlarida sodir bo'ladigan ruhiy o'zgarishlar haqida muallif tasviri berilmaydi, bu holatlar ularning o'z nutqlarida zuhr etib turadi. Shuning uchun ularning salbiy yoki ijobiy munosabatlari, xush kayfiyatlari yoki badjahl holatlari ham, yaxshi-yomon fe'l-atvorlari ham, xarakter xususiyatlari ham, to'g'ri munosabatlari-yu ikki yuzlamachiliklari ham ularning o'z nutqlari orqali o'quvchi va tomoshabinga yetkaziladi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, dramatik asarlarda personajlar nutqida qo'llanuvchi qarg'ish, haqorat so'zlarning ham o'rni bilan o'ziga xos uslubiy ma'nolari bor va ular asar qahramonlari yashayotgan muhit, tarixiy sharoit va voqelik, o'zaro munosabatlari, qahramonlarning ruhiy holatlari to'g'risida o'quvchida ma'lum tasavvurlar hosil qilishga xizmat etadi. Quyida ularning ayrim ko'rinishlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Shuni ham aytish kerakki, haqorat, so'kish, qarg'ish ifodalovchi so'zlar personaj nutqida ko'pincha undalma shaklida kelib, munosabatning bevosita o'z tinglovchisiga qaratilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqa xil ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Umuman olganda, qo'pol so'zlarning qo'llanishi personaj-so'zlovchining ruhiy kayfiyati va nutqining shiddati bilan bog'liqdir. Shuning uchun bunday so'zlarning qo'llanishi nutqiy vaziyatga muvofiq keladi. Ularni ma'lum o'rinda bir xil shaklda, boshqa o'rinda boshqacharoq shaklda keladi, deya aniq andaza qo'yib bo'lmaydi. Ular ruhiy tinchsizlik, extiroslarning shiddati, vaziyatning keskinligi, kayfiyatning beqarorligi tufayli, bir nutqiy vaziyatning o'zida xilma-xil shakllarda ko'rinish berishi mumkin. Demak, personaj nutqida salbiy emotsional baho ifodalovchi so'z va iboralar turli shakl va ko'rinishda, chunonchi, undalma, vokativ gap, sifatlovchi, kinoya ifodalovchi gap shakllarida kelishi mumkin.

Undalma bo'lib kelgan haqorat so'z va birikmalar so'zlovchining tinglovchiga bevosita g'azabi va salbiy emotsional bahosini ifodalaydi. Ular nutqiy vaziyat, personajlar xarakteri va ruhiy holatiga bog'liq ravishda qator uslubiy ma'no nozikliklarini tashib keladi.

Haqorat so'z gap boshida undalma bo'lib kelib, tinglovchining aynan o'ziga qaratilgan bo'ladi. Masalan, «Istibdod qurbonlari» dramasida mardikorlikda

yurgan o'zbek yigitlaridan Saidxonga qamoqxona boshlig'i quyidagicha do'q uradi: «*Hayvon o'g'li, hozir bo'l, umringdan ikki minut qoldi*». Bu yerda boshliqning tinglovchini mensimasligi, do'q-dag'dag'asi va darg'azabligi haqorat so'z orqali ifoda etilgan.

Saidxon ham undan nafratlanadi. U o'z yurtdoshlari, maslakdoshlarini himoya qiladi. Undan sir olmoqchi bo'lgan boshliqqa va u orqali butun zolim mustabidlarga haqorat yog'diradi. Jumladan, boshliqqa nisbatan quyidagicha xitob qiladi: «*Olchoq ket ko'zimdan*». Ko'rinadiki, Saidxonning qamoqxona boshlig'iga nafrati cheksiz va bu nafratini yashirmaydi, uni o'ta razil, past kishi deb baholaydi. «*Olchoq*» haqorat so'zi bu ma'noni va so'zlovchi nafratini yaxshi ifodalaydi.

«*Tuhmatchilar jazosi*»da Fotima dushmanni qaznoqqa solib chiqar ekan: «*Ahmoq, sening bir jazongni berayin, qarab turgin!*» deydi. Bu misolda so'zlovchi tinglovchiga to'g'ridan-to'g'ri, yuzma-yuz turib murojaat qilmaydi, balki unga orqavorotdan so'zlagan. «*Ahmoq*» so'zi so'zlovchining salbiy emotsional bahosini ham, unga murojaatini ham qo'shib ifodalaydi.

Gap boshida undalma holatida qo'llangan haqorat so'zlarga ko'pincha undov so'zlar qo'shib ishlatiladi. Bu esa nutqda vokativlikni, turli emotsiya ma'nolarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan:

Pasha. Hoy *tirrancha*, jim! O'zing kimsan? («*General Rahimov*»)

Mirzaraim. Ey, *itvoy*, axir, aytayapti-ku, xatni tutnimi, tolnimi kallagiga qo'ysin, debdi deb. Biz qo'yamiz-da. («*Paranji sirlaridan bir lavha*»)

Ushbu misollarning birinchisida haqorat ma'nosi kuchsiz, so'zlovchining niyati ham haqorat qilish emas, tanbeh berishdir. Odatda, bolalarga nisbatan, «*tirrancha*», «*tirmizak*» so'zlari qo'llanadi. Bu so'z hali qo'ldan biror ish kelmaydigan, turmushning og'ir-engilini ko'rmagan, yosh g'o'r bola haqida aytiladi.

Kesatiq ma'nosini beruvchi bu so'z nutqiy vaziyat talabi bilan so'zlovchining turli xil salbiy munosabatini, masalan, kesatiq, mensimaslik, tahdid, koyish, hatto g'azab, nafratini ham qo'shib ifodalashi mumkin. Bu nutqiy vaziyat va shunga muvofiq ohang orqali anglashiladi. Yuqoridagi misolda esa tanbeh ogohlantirish ma'nosida qo'llangan.

Ikkinchi misolda xarakterlar boshqacharoq ko'rinishga ega. Mirzaraim Masturaga «*ey, itvoy*» deya murojaat qiladi. Aslida «-boy», «-voy» affiksoidi erkaklar jinsini bildiruvchi atoqli otlarga qo'shilib keladi. Professor R.Qo'ng'urovning ilmiy xulosalariga ko'ra, aslida bu affiksoidlar kishilar o'rtasidagi amal va ijtimoiy o'rin bilan bog'liq bo'lgan farqlarni ko'rsatish uchun ishlatilgan. Shu ma'noda hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan, bular «o'lik» holatiga

kelgan, arxaiklashgan. [1:126] Olimning fikricha, bola tug'ilganda, uni nomlash paytidagina *-boy, -bek, -qul* kabi unsurlar erkalatish niyatida ismlarga qo'shiladi. Ammo bu ottenka asta-sekin ismga qo'shilib ketadi va qandaydir emotsional-ekspressivlik nozikligiga ega bo'lmaydi, baholash momenti yo'qoladi.

Hurmatli professor bu affiksoidlarning uslubiy ma'no xususiyatlariga e'tiborni qaratar ekan, satirik janrdagi publitsistik asarlarda, goh ba'zi bir badiiy asarlarda obrazlar xarakteriga moslab topilgan, to'qilgan obrazlarga *-boy, -bek, -qul* unsurlari qo'shilib kelishi, bunday hollarda, asosan, erkalash emas, balki kinoyali salbiy munosabatni bildiruvchi baho momenti hosil qilinishini to'g'ri qayd etadi. [2: 485-486]

Demak, bu formantning badiiy asarlarda uslubiy ma'no tashishga xizmat qilish xususiyati ham mavjud. Yuqoridagi misolda Mirzaraim Masturaga «*ey, itvoy*» deya murojat etar ekan, ushbu formantni turdosh otga qo'shib qo'llab, salbiy kinoya, mensimaslik ma'nolarini ifodalaydi. Mirzaraim Masturaga : «*ey, it*» deb murojaat qilishi ham mumkin edi. Biroq bunday deya olmaydi. Chunki suhbat bunday bir-birini haqoratlashni talab qilmaydi, ular o'zlarining «muhim» niyatlarini amalga oshirish rejasini tuzishayotir. Shuning uchun «*it*» so'ziga «-*voy*» affiksoidning qo'shilishi bu qo'pol haqorat ma'nosini yumshatib, kinoyani kuchaytirgan. Ikkinchidan, so'zni bu tarzda qo'llash nutqda jargonlashuv tusini beradi. Professor R.Qo'ng'urov ham bu affiksoidni qo'shishda so'zlovchi munosabati so'zning negizidagi ma'no bilan bog'liq bo'lishiga e'tiborni qaratgan. [1:126-127]

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, haqorat so'zlar so'zlovchi nutqida metaforik ma'no tashib kelishi, bunday ko'chma ma'noli so'z emotsional salbiy baholash ma'nosini aniqlikda, obrazli ko'rinishda, tasviriy tarzda berish imkonini hosil qiladi.

Ba'zan haqorat so'z gap boshida kelib, so'zlovchining sarosima, vahimaga tushish, qo'rqish holatini ham ifodalaydi. Masalan:

Juma (jim qoladi, ko'zini bir nuqtaga tikib qovjiragan tovush bilan). Vo ajabo Bu qanday hol? Prokuror ... Sud ... him ... (Boshini qisib ingraydi.) Hey *la'nati*, Juma, baland, vahimalik bir jar yoqasiga kelib qolibsan Nahotki, najot bo'lmasa? (Og'ip odim tashlab chiqadi.)

Bu yerda «Oftobxon» dramasi personajlaridan biri Juma «*hey la'nati*» der ekan, faqat o'ziga murojaat qilib qolmaydi. Ishning chapga ketganligini, bosilgan noto'g'ri qadamlarini, uni bu ishga tortganlarni ham qo'shib la'natlaydi. Umuman, talvasali ruhiy holatida butun qilmishi shu haqorat so'zda salbiy emotsional baholanishini topadi.

Ba'zan gap boshida kelgan undalma qarg'ish so'z yo birikma bo'lishi mumkin. Bunda so'zlovchining koyishi, nafrati, jahli chiqqanligi, tinglovchini nazar-pisand qilmay, past ko'rayotganligi kabi bir qator uslubiy ma'nolar anglashiladi. Masalan, «Paranji sirlaridan bir lavha» dramasida Hojar nutqida bu hol ko'p uchraydi. U qiziga urishar ekan, «Ha, *juvonmarg*, xolangga nima deding?», «*Xazonmarg bo'lgur*, nima balo bo'lgan senga?», «A, *juvonmarg*, nima bo'ldi senga?» deya murojaatlar qiladi. Bu murojaatlarda Hojarning qizini tergashi, koyishi, o'z hukmini unga o'tkazishga intilayotgani, bezovtaligi, qizni gapga ko'ndirishga urinayotgani ko'rinadi. E'tibor berilsa, bu qarg'ishlar yurakdan otilib chiqqan nafrat ifodasi emas, shunchaki qo'rqitish uchun aytilayotgan onalik qarg'ishi ekanligi ham seziladi. Bu yerda so'zlovchining tinglovchini haqorat qilish niyati yo'q, balki uning roziligini olish niyati ifodalanadi.

Ba'zan bunday qarg'ish so'zlar personaj nutqi boshida undalma shaklida ko'rinsa-da, undalma vazifasini o'tamaydi, balki o'zgan salbiy emotsional tavsiflash ma'nosini beradi. Masalan:

Xojar. *Voy, xazon bo'lgur, xayriyatam, qochib tegib olgan.*

Mastura. *Juvonso'xta*, ko'chalarni tanib qolmasa deng. («Paranji sirlaridan bir lavha»)

Birinchi misolda Umrzoqning hikoyasidan Hojarning hayratga tushgani, vahimaga, qo'rquvga tushgani anglashiladi. «*Voy xazon bo'lgur*» qarg'ishi u hikoya qilgan kuyov yigit haqida. «*Xayriyatki, qochib tegib olgan*» gapi unga tekkan qiz haqida. Shunday qilib, bular qo'shma gapning ikki komponenti tusini olgan.

Ikkinchi misolda ham «*juvonso'xta*» qarg'ish so'zi tinglovchiga qaratilmagan, balki ular aldab o'g'irlashlari kerak bo'lgan qiz, ya'ni To'laxon haqida. Bu yerda qarg'ish so'z pauza bilan ajraladi, so'zlovchining xavfsirash holati, shu xavfsirash asnosida qizni qarg'ayotganligini bildirib, gapda ajratilgan bo'lak shaklini oladi.

Ba'zan gap boshida undov qo'shib undalma shaklida kelgan haqorat so'z so'zlovchining g'azab-nafratini hayron qolishi bilan qo'shib ifodalaydi. Masalan, «*Istibdod qurbonlari*» dramasida mardikorlikka borgan o'zbek yigitlari yoniga uzoq yurtlari - Farg'onadan kelgan Qosimjon qo'rboshining hiylasini ularga ma'lum qiladi. Shunda ular Hammasi: «*O, badbaxt-ey, shu yerda ham tinch qo'ymadi-ya*», deb yuborishadi.

Personaj nutqida emotsional salbiy baholovchi so'zlar metafora shaklida ham keng qo'llanadi. Masalan, «*bo'rilar*», «*itlar*», «*yirtqichlar*», «*dajjol*», «*shayton*», «*ilonlar*», «*chayonlar*», «*hasharotlar*», «*kaltakesaklar*» va boshqa metaforik murojaatlar bundan dalolatdir. Bunday metaforik xususiyatga ega salbiy baholovchi so'zlar personaj nutqida undalma shaklida ham, gap boshi, oxiri yo o'rtasida ham,

sifatlovchi shaklida ham yoki sifatlovchilar olib ham, gap bo'laklari yoki ajratilgan bo'lak shaklida ham keladi.

Salbiy emotsional baholash ma'nosidagi so'z va birikmalarning undalma shaklida gap oxirida kelishi ham personajlar nutqida ko'p uchraydi. Ularning ayrim ifoda xususiyatlari quyidagichadir:

1. So'zlovchining tinglovchini ayni paytda haqoratlash niyati yo'q, ammo unga past nazar bilan qarashi seziladi. Shuning uchun ham haqorat so'zni xuddi shu nutq momentida birinchi marta aytmasdan, aksincha, tinglovchiga nisbatan shunday munosabatga odatlanib qolganligidan, uni tilga olganligi kuzatiladi. Masalan:

Qodirqul. Unday ishlar bizga o'yin. Nazaringni juda ham past qilma, *moxov!* Yur, ketamiz. («Burung'i saylovlar»)

Bu yerda Qodirqul nutqida nafrat yuq, nasihat ohangi mavjud.

2. So'zlovchining dag'dag'asi, qo'rqitish ohangi ifodalanadi. Masalan:

Qosimxon. Men qanday aytaman, dada?

Qodirqul. Ayta berasan, *la'nati!* («Burung'i saylovlar»)

3. Tinglovchiga nisbatan salbiy munosabat, ammo undan hayiqib so'zlash ohangi anglashiladi. Masalan:

Qozi. Xo'p, xo'p, shu hafta ichida to'g'rilaymiz.

Mullado'st. Ertagayoq deya ber-da, *nokas!*

Mullado'st tabiatan ikkiyuzlamachi emas. Ammo hayot uni shunday, mulla, qozilar oldida bir xil, izidan boshqa xil so'zlashga majbur qiladi. Uning so'zlarida kinoya, qochirim kuchli. Arboblarni, yashirib, o'zlariga bildirmay so'kishi esa, birinchidan, Mullado'stning ularga nafrat bilan qarashini, ikkinchidan, obraz individualligini hosil qiladi, uchinchidan, uning lafzidagi bu xil salbiy emotsional baholovchi so'zlar tomoshabinda kulgi hosil qiladi.

Shuningdek, gap oxirida undalma bo'lib kelgan bunday so'zlar kahr-g'azab, darg'azablik, tahdidli chaqiriq, do'q urish kabi ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, «General Rahimov»da Ota Danilo: «Qani sen, ey *la'nati!*», «Qani sen, hoy *battol!*» deya chaqirsa, «Paranji sirlaridan bir lavha»da Yusufjon: «Qanday beting bo'ldi, *nomussiz!*» deydi.

Ba'zan bunday so'zlar personaj nutqida qo'llanganda, haqorat ma'nosini anglatmaydi, balki tengdoshlarning bir-biriga laqab taqib, hazillashib kamsitish kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan, «Oftobxon» dramasida yoshlar vakillari bo'lgan Xushnazar, Madumar kabi personajlar bir-birlariga «*go'shna*», «*xumpar*» deya murojaat qilishadi.

Ba'zan personaj nutqida qarg'ish so'z va iboralar undalma shaklida kelib, do'q

g'azab, tahdid ma'nolarini anglatadi. Ba'zan esa qarg'ish anglatuvchi so'z yoki birikma-gap, haqorat bildiruvchi so'z undalma bo'lib kelib, so'zlovchining tinglovchini mensimasligi, pastga urishi, haqorat ma'nolarini ifodalab keladi. Masalan, «Gulsara» dramasi Oysara: «Voy aylanay domladan!» deya hurmat ko'rsatsa, u esa: «Ey aylanmay o'l, la'nati!» deya javob qaytaradi.

Personaj nutqida emotsional salbiy baholovchi so'zlarning undalma shaklida qo'llanib, gap o'rtasida kelishi ham ko'p uchraydi. Chunonchi, ba'zan ta'kidni kuchaytirish maqsadida biror gap bo'lagi (ko'pincha kesim) takrorlanib, ular orasida so'zlovchining tinglovchiga qaratilgan emotsional salbiy baholovchi undalmasi keladi. Bunda so'zlovchining tinglovchiga nisbatan nafrat-g'azabi anglashib turadi. Masalan, «Nomus va muhabbat» dramasi Gulom Yaxshivoyga qarata: «Yolg'on gapirasan, ig'vogarsan. Gapir, muttahaam, ha, gapir!» deydi. Ba'zan bunday undalma personaj nutqida qo'shma gap orasida kelishi mumkin. Masalan, «Hamza» dramasi Eshonoyim: «Qayt, baxti qaro, yo'qsa, qarg'ayman» deydi.

Dramatik asarlarda personajlar nutqida emotsional salbiy baho ifodalovchi so'z va birikmalar uyushiq bo'lak shaklida bo'ladi. Ular otlashgan holda uyushgan undalma, uyushgan ega, sifatlovchi, kesim vazifalarida keladi. Ba'zan bunday so'zlar sifatlovchi-sifatlanmish holatida kelib, so'zlovchining emotsional salbiy munosabatini jo'shqinlashtirib, ma'noga esa tasvir tusini berib ifodalaydi. Masalan, «General Rahimov» dramasi Sohib «benomus qo'rqqoq» birikmasini ishlatadi. Yoki «Istibdod qurbonlari»da Saidxon «palid murdor», deydi. Ba'zan bunday birikmaning sifatlanmish qismi haqorat so'z, sifatlovchisi qarg'ish ifodalovchi so'z yoki ibora bo'lishi mumkin. Masalan:

Obida. Bo'lmasam-chi! O'lim bergur betofiqni! («Paranji sirlaridan bir lavha»)

Personajlar nutqida bunday so'z va iboralarning to'ldiruvchi, ajratilgan bo'lak ko'rinishlarida kelishi ham o'ziga xos emotsional salbiy baholash ma'nosiga ega bo'lib, uslubiy jihatdan ifodalilik kasb etadi. Ayniqsa, ularning kesim vazifasida kelishi kuchli uslubiy ma'no bildirish imkoniyatlarini tug'diradi. Chunki gapda kesimning o'ziga xos o'rni bor. Kesim ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va hodisaning belgisini bildiradigan bo'lakdir. Kesimda belgi odatda tasdiq yo inkor yo'li bilan anglatiladi. Bunda belgi so'zi keng ma'noda bo'lib, harakat, holat, xususiyat, sifat kabi mazmunlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, kesim ega haqidagi hukmi (tasdiqni yoki inkorni) bildiradi va gapda predikativlikni ko'rsatadi. Kesim gapni uyushtiruvchi markazlaridan biri va turli so'z turkumlari orqali ifodalana oladi. Shu sababli personajlar nutqida kesim bo'lib kelgan emotsional salbiy ma'noli so'zlar va iboralar ko'pincha qat'iy hukm ohangini oladi va nutqning ta'sir quvvatini oshiradi. Ba'zan she'riy ohang talabi bilan gap inversiyaga uchrab, kesim

gap boshida keladi. Bunday paytda so'zlovchining kesimda ifodalangan ma'noga alohida e'tibor berganligi ham anglashiladi. Ba'zan personaj nutqida kesim bo'lib kelgan salbiy ma'noli so'zlar so'zlovchining kuchli ruhiy dramatik holatini ifodalaydi. Masalan:

G`ulom. Onaxon... Onaxonga er bo'lish katta gap. Onaxon *yaramas* ... Onaxon *sharmanda* ... *o'ynash* Ey, Yaxshivoy. Menga nima bo'ldi, Yaxshivoy... Yaxshivoy ... Yaxshivoy Agar o'sha kungi zahar Ey, Yaxshivoy Badbaxt Yaxshivoy («Nomus va muhabbat»)

Ba'zan personaj nutqida qo'llangan salbiy ma'noli so'z va birikmalar kesim vazifasida kelib, so'zlovchining sarosima, vahimaga tushish kayfiyatini ifodalasa, ba'zan ular ajratilgan bo'lak shaklida kelib, so'zlovchining munosabatini ajratib, ta'kidlab yoki izohlab ko'rsatishga xizmat qiladi. Ba'zan esa ular kirish so'z bo'lib kelib, umumiy ahvolga munosabat, koyinish, alam qilish, g'azablanish, afsuslanish, o'kinish kabi ma'nolarni bildirib keladi.

Personajlarning nutqida emotsional salbiy baho ifodalovchi so'z va birikmalarning so'z-gap bo'lib kelishi ko'p uchraydi. Ular so'zlovchining kuchli g'azabi, tahdidi, dag'dag'asi, kamsitishi, o'ksinishi, afsuslanishi, qat'iy qarori va boshqa shu kabi qator uslubiy ma'nolarni ifodalab keladi. Masalan, «Istibdod qurbonlari» dramasiining ikkinchi pardasida Mirzaboyning og'ir ahvolda o'lim oldida yotgan sahnasi tasvir etilgan. U o'z nola-monologida dunyodan hasrat qiladi: «Oh *badbaxt* dunyo! (Qichqirib). *Palid* dunyo, oh dunyo!» Bu yerda so'zlovchining ro'shnolik ko'rmagan umri uchun, nohaqliklardan, zulmdan, oqibatsizliklardan nolishi ifodalangan. Uning nutqida dunyoni haqorat qilish orqali o'z turmushining nobopligi, hayotning nohaqliklarga to'laligidan norozilik kayfiyati, kechinmalari ifodalanadi.

Yoki «Nomus va muhabbat» dramasida G`ulomning uydan chiqib ketishi sahnasida, otasi uning qilmishidan qattiq jahllanadi va iztirobga keladi: «*La'nati!* (Pauza. Ko'z yoshini artadi). Nodon bola!» Bu yerda G`ulomning fe'li so'z-gaplar orqali qoralanadi va emotsional salbiy baholanadi. Shu bilan birga, so'zlovchining koyinishi, kuyinishi, alami, dardi, jahllanganligi ma'nolari ham qo'shib ifodalanadi.

Ba'zan salbiy ma'noli so'z va birikmalar personaj nutqida so'z-gap bo'lib kelganda, so'zlovchining tilyog'lamaligini, g'azabli ko'rinsa-da, ichdan quvonayotganini ham ifodalaydi. Masalan, H.H.Niyoziyning «Tuhmatchilar jazosi» dramasiining bosh qahramoni Fotima eri Qosimjonni o'zidan sovutmoqchi bo'lgan imom domla, Sulton piyanistalarni qo'lga tushirish maqsadida uyiga bir-bir chaqirib, eridan «hasrat» keladi. Shunda domla: «Obbo, *zolim qonxo'r-ey!*» deb, Sulton: «A, *battol zolim-e*» deb o'z munosabatlarini bildirishadi. Bu bilan Fotimaga

xayrixoh ekanliklarini, Qosimjonning zulmkorligini yomon ko'rganliklarini bildirmoqchi bo'ladilar, aslida esa ichdan quvonib turganliklari seziladi.

Ba'zan personaj nutqida bunday so'z-gap bo'lib keluvchi so'zlar o'z sinonimlari bilan birgalikda kelib, his-hayajonning ortiqqligini ko'rsatadi. Masalan, «Hamza» dramasi Naziriy: «O *badbaxt!* O ablah *sharmanda, rasvo!*» der ekan, so'zlovchining o'ta darg'azabligi seziladi.

Personajlar nutqida vulgar so'zlar bilan birgalikda, kakofemizmlar ham keng qo'llanadi. Masalan, «O'lim bosqinchilarga!» dramasi Qambar: «So'ngra dushman o'rmonga kiring, to'rt tomondan o't ochib, *bitta qo'ymay qirib tashlaymiz*», deydi. bu yerda metaforik xususiyat olgan «*bitta qo'ymay qirib tashlaymiz*» iborasi kakofemizm bo'lib, so'zlovchining kuchli nafratini ifoda etadi. (Kakofemizmlar tabiati haqida qarang: [3: 67- 68; 4: 129-131])

Ba'zan qarg'ish so'zlar qahramon xarakterini ko'rsatuvchi, uning tilini individuallashtiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, «Gulsara» dramasi Otinbuvi har gapida «*juvon o'lgurlar*», «*yashamagur Shayton*», «*tilginang ajdaholarga yem bo'lgur*», «*diytori qursin*», «*ko'zing teshilib chiqqur*» kabi qarg'ish so'zlarni qo'shib ishlatadi.

Shunday qilib, dramatik asarlarda emotsional salbiy baho ifodalovchi so'zlar va iboralarning uslubiy ma'no qimmatini katta hamda xilma-xildir. Ular g'azab, nafrat, piching, kesatiq, kinoya, hasrat, koyinish, so'kinish, qarg'anish, do'q po'pisa, mensimaslik, kamsitish va boshqa xil ma'nolarni ifodalab keladi. Ular olmosh, son, undov kabi so'zlar bilan qo'shib, ba'zan takrorlanib, ba'zan sinonimlari bilan uyushib kelib, ma'no va ifodani kuchaytirishga, nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ular, ayniqsa, so'z ketayotgan ob'ekt - kishi voqelik, narsani salbiy jihatdan emotsional-ekspressiv tavsiflab ko'rsatadilar. Salbiy emotsional baholovchi so'z va iboralar ot, sifat va boshqa so'zlardan bo'lishi mumkin. Shuningdek, personaj nutqida qochirimlar, kinoyalar, qarg'ishlar va boshqa vulgar so'zlar, so'zlarning metaforik ma'nolari, kakofemizmlar ham kuchli salbiy baholash xarakteriga egadirlar.

Sintaktik jihatdan personaj nutqidagi emotsional salbiy ma'no ifodalovchi so'z va birikmalar sifatlovchi, ega, kesim, qaratqich, to'ldiruvchi, kirish so'z, undalma, so'z-gap, uyushiq va ajratilgan bo'laklar bo'lib kelishi mumkin. Ularning sintaktik vazifalarini o'rganish alohida tadqiqotni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'ng'urov R. Sub'ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T.: Fan, 1980.-168 b.
2. Материалы Всесоюзной конференции по общему языкознанию. Ch. II. – Samarqand. 1966.
3. Shomaqsudov A. v. b. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983.-248 b.
4. Nutq madaniyati masalalari (ilmiy to'plam). – T.: 1993.-246 b.
5. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston, 1983.

THE INFLUENCE OF EMOTION BASED LANGUAGE TEACHING ON SPEAKING AND WRITING SKILLS AMONG EFL LEARNERS.

<https://doi.org/>

Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi,

English Language teacher.

Abstract

Effective learning is the ultimate goal in every educational system, which can be achieved by considering the intertwined relationships of both cognitive and affective procedures. In line with this argument, this study intends to shed light on the impact of Emotion Based Language Instruction (EBLI) in enhancing teaching productive skills (speaking and writing) to EFL students.

Key words

Emotion Based Language Learning Instruction (EBLI), emotioncy, emotions, productive skills, EFL students.

Introduction: In the fast-paced and ever-changing world, there is a considerable attentiveness in learning a second language. Language learning involves four basic skills namely, speaking, listening, reading, and writing. These skills are subdivided into two categories: productive or active skills and receptive or passive skills (Harmer, 2007). Reading and listening are considered as receptive skills, and learners are not required to produce language; they are input receiver. In contrast, speaking and writing are regarded as productive or active skills, and require the learners to produce language by themselves (Brown, 2007). Thus, speaking and writing seem more demanding and challenging for the learners, since they should transfer their competencies into performance and generate spoken or written messages. To simplify the task of learning, over the years, approaches and methods for teaching speaking and writing have gone through a myriad of changes (Brown, 2007; Nation, 2009; Nation & Newton, 2009).

It almost goes without saying that the knowledge of vocabulary is of great importance to improve second/foreign language proficiency (Decarrico, 2001; Nation, 2009). Notably, the importance of this source of knowledge could be felt more in mastering productive skills, because without vocabulary knowledge as the building block of language, learners are not able to construct language messages. In this regard, two primary questions a language teacher faces maybe what types of vocabularies are better to teach (Pishghadam & Shayesteh, 2017), and how to teach